

**ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Solijonova Hilola Ikromjon qizi**

NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Tel: +998937051667

[hilolasolijonova1771@gmail.com](mailto:hilolasolijonova1771@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ijodiy topshiriqlarning o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

**Kalit so‘zlar:** nutq kompetensiyasi, og‘zaki nutq, yozma nutq, ona tili ta’limi, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы развития устной и письменной речи учащихся на уроках родного языка. Раскрывается важность образовательного процесса, организованного на основе компетентностного подхода, в развитии речи. Также подчеркивается роль интерактивных методов, современных педагогических технологий и творческих заданий в повышении речевой активности учащихся. Результаты исследования имеют важное значение, поскольку способствуют

повышению эффективности развития устной и письменной речи на занятиях на родном языке.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, устная речь, письменная речь, обучение родному языку, интерактивные методы, компетентностный подход.

**Abstract:** This article analyzes the issues of developing students' oral and written speech competencies in native language lessons from a scientific, theoretical and practical perspective. The importance of the educational process organized on the basis of a competency-based approach in developing speech is revealed. The role of interactive methods, modern pedagogical technologies and creative tasks in increasing students' speech activity is also highlighted. The results of the study are significant in that they serve to increase the effectiveness of developing oral and written speech in native language lessons.

**Keywords:** speech competence, oral speech, written speech, mother tongue education, interactive methods, competency-based approach.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchining faqat bilim olishi emas, balki o'z fikrini erkin, ravon va to'g'ri ifodalay olishi ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Chunki ona tili fani orqali o'quvchi o'z ona tilida to'g'ri gapirishni, fikrini yozma shaklda ifodalashni va nutq madaniyatiga rioya qilishni o'rganadi.

O'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda dars jarayonida suhbat metodidan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi tomonidan berilgan savollar o'quvchini o'ylashga, fikrini og'zaki bayon qilishga undaydi. Masalan, matn o'qilgach, uning mazmuni haqida suhbat tashkil etilsa, o'quvchi o'z fikrini mustaqil ifodalashga harakat qiladi. Bu jarayon o'quvchining nutqini ravonlashtiradi va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Matn bilan ishlash metodi ham nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. O'quvchilar matnni o'qib, uni tushunadi, qayta hikoya qiladi va asosiy g'oyani aniqlaydi. Shu bilan birga, matn asosida reja tuzish, savollarga yozma javob berish orqali yozma nutq ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu usul o'quvchilarning fikrini izchil va mantiqli bayon qilishiga yordam beradi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda ijodiy yondashuv ham muhim hisoblanadi. Ijodiy topshiriqlar o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, berilgan rasm asosida matn tuzish, voqeani davom ettirib yozish yoki matnga sarlavha qo'yish kabi mashqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va nutqini boyitadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda yozishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda ijodiy yozma ishlar alohida o'rin tutadi. Insho, bayon va kichik hikoyalar yozish jarayonida o'quvchi o'z fikrini yozma shaklda erkin ifodalashga o'rganadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, yozma savodxonligini rivojlantiradi va fikrni to'g'ri tuzishga o'rgatadi. Og'zaki nutqni rivojlantirishda rolli o'yinlar va bahs-munozaralardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. O'quvchilar turli vaziyatlar asosida suhbat quradilar, o'z fikrini himoya qiladilar va boshqalarning fikrini tinglashni o'rganadilar. Bu metod o'quvchilarning nutq faolligini oshirib, ularni jamoa oldida gapirishga o'rgatadi. Zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ham nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Aqliy hujum, klaster kabi usullar orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini erkin bayon qiladilar. Bu metodlar o'quvchilarning nafaqat og'zaki, balki yozma nutqini ham rivojlantiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. O'quvchining nutqi qanchalik rivojlangan bo'lsa, u o'z fikrini shunchalik aniq, ravon va mantiqli ifodalay oladi. Bu esa uning boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarida nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi. Suhbat, matn bilan ishlash, ijodiy yozma

ishlar, rolli o‘yinlar va zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda erkin bayon qilishga o‘rgatadi.

Shuningdek, o‘qituvchining dars jarayonidagi roli ham juda muhimdir. O‘qituvchi o‘quvchini rag‘batlantirishi, uning fikrini qadrlashi va nutqiy xatolarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali tuzatib borishi lozim. Bu esa o‘quvchilarda nutqiy ishonchni shakllantiradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ona tili darslarini tashkil etishda nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. T. „O‘qituvchi“, 1980- y
- R.M.Kadirova. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni o‘stirishning omillari (O‘quv qo‘llanma). –T.: TDPU, 2002.
- Q. Shodieva. O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish. –T.: O‘qituvchi, 1993
- F.R.Qodirova, R.M.Kadirova. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. –T.: Istiqlol, 2006.
- Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1985-yil.